



UO'K: 342.721-057.51: 677"71"

**Sharofjon MAMATMURODOV,**  
*Falsafa fanlari doktori (PhD),  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institute, Toshkent, O'zbekiston*  
E-mail: sharof0511@mail.ru, ORCID: 0009-0006-5034-0339

*Falsafa fanlari doktori, professor, G.Masharipova taqrizi ostida*

### **GUARANTEEING THE RIGHTS AND FREEDOMS OF ENTREPRENEURS IS THE BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY**

Abstract

This article analyzes the development of entrepreneurial activity in the textile and light industries, the legal framework for supporting entrepreneurs, and the economic effectiveness of guaranteeing the rights and freedoms of business entities. It emphasizes the role of legal guarantees established in the new Constitution of the Republic of Uzbekistan and relevant legislation in the activities of textile and light industry enterprises. Measures to reduce administrative barriers and improve the investment climate are also proposed.

**Keywords:** textile and light industry, business law, legal guarantees, private property, inviolability of private property, investment climate, clique system, free economy, administrative barriers.

### **ГАРАНТИРОВАНИЕ ПРАВ И СВОБОД ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ - ОСНОВА ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Аннотация

В данной статье анализируется развитие предпринимательской активности в текстильной и легкой промышленности, правовая база поддержки предпринимателей и экономическая эффективность гарантирования прав и свобод хозяйствующих субъектов. Подчеркивается роль правовых гарантий, установленных в новой Конституции Республики Узбекистан и соответствующем законодательстве, в деятельности предприятий текстильной и легкой промышленности. Также предлагаются меры по снижению административных барьеров и улучшению инвестиционного климата.

**Ключевые слова:** текстильная и легкая промышленность, коммерческое право, правовые гарантии, частная собственность, неприкосновенность частной собственности, инвестиционный климат, кликовая система, свободная экономика, административные барьеры.

### **TADBIRKOR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATI - TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISH ASOSI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada to'qimachilik va yengil sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlarni qo'llab quvvatlashning huquqiy asoslari, tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklarini kafolatlashning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi hamda sohaga oid qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy kafolatlar to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini faoliyatidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** to'qimachilik va yengil sanoat, tadbirkorlik huquqi, huquqiy kafolatlar, xususiy mulk, xususiy mulk daxlsizligi, investitsiya muhiti, klister tizimi, erkin iqtisodiyot, ma'muriy to'siqlar.

**Kirish:** To'qimachilik va yengil sanoat O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog'i bo'lib, u davlatning eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda axolining bandligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda to'qimachilik va yengil sanoat sohasining rivojlanishi faqatgina zamonaviy texnologiyalarga emas, balki tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan huquqiy muhit va ularning huquqiy himoyalanganlik darajasiga ham chambarchas bog'liq. Tadbirkorlar o'z huquq va erkinliklarini davlat tomonidan qat'iy kafolatlanishini his qilgan holdagina uzoq muddatli investitsiya kiritishga va innovatsiyalarni joriy etishga intiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda To'qimachilik va yengil sanoat O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog'i hamda axoli bandligini ta'minlashning asosiy hisoblanadi. Bu sohani rivojlantirish bo'yicha qator huquqshunos va iqtisodchi olimlar ilmiy ishlar olib borganlar. Gulyamov S.S. Tadbirkorlik huquqini kafolatlash tadbirkorlarga shart sharoitlar yaratish soha rivojining asosi

ekanligini aytib o'tadi. Abdurahmonov Q.X. Investitsiyaviy faollik nafaqat soliq imtiyozlari, balki mulk huquqining daxlsizligi bilan o'lchanadi. Tadbirkor o'z aktivlari ma'muriy o'zgarishlardan qat'i nazar himoyalanganini bilishi shartligiga urg'u beradi. Sattorov A. Klaster tizimining iqtisodiy va huquqiy jihatlarini va uning to'qimachilik va yengil sanoatdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda O'zbekistonning to'qimachilik va yengil sanoatdagi salohiyati va imkoniyatlarini tahlil qilish, ushbu soha subyektlarining huquq va erkinliklari, qonun hujjatlari hamda lokal hujjatlardagi normalar so'rovlar, suhbat, kuzatish, qiyosiy-taqqoslash va ekspert baholash orqali tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadbirkorlik huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanish uchun yuksak darajada qulay muhit yaratishdir. Yangi tahrirdagi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklari tubdan kuchaytirildi.

“Tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga, o'z faoliyati yo'nalishini mustaqil ravishda tanlashga, tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad olishga haqlidir” [1].

Ushbu norma to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini uchun xomashyo sotib olishdan tortib, tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda tanlov erkinligini kafolatlaydi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillarini mustahkamlash uchun oliy yuridik hujjatdir. Yengil sanoat kabi xususiy sektor ustuvor bo'lgan sohalar uchun ushbu huquqiy asoslar faoliyatning barqarorligini belgilaydi.

Konstitutsiyaning 65-moddasida Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi deb belgilangan. Bu tadbirkorlarga egalik qilish bilan bir qatorda erkin tasarruf etish huquqini beradi.

Eng muhim o'zgarishlardan biri 67-moddada aks etgan: “Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi”.

Ushbu norma to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini uchun xomashyo sotib olishdan tortib, tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda tanlov erkinligini kafolatlaydi. Tadbirkorlarning daromadi daxlsizligi esa valyuta tushumlari va foydani reinvestitsiya qilish uchun huquqiy zamin yaratadi.

To'qimachilik va yengil sanoatda xususiy mulk daxlsizligi va uning ahamiyati. Yengil sanoat korxonalarini yuqori texnologiyali jihozlarni harid qilish yirik kapital talab etadi. Bunday sharoitda mulk daxlsizligi masalasi birlamchi hisoblanadi.

Huquqshunos olim S.S. Gulyamov ta'kidlaganidek: “Mulq huquqining barqarorligi tadbirkorning ertangi kunga bo'lgan ishonchini belgilaydi. Agar davlat xususiy mulkning daxlsizligini to'liq kafolatlamasa, innovatsion rivojlanish haqida gapirish imkonsizdir” [5].

To'qimachilik va yengil sanoatda klasterlar tashkil etilishi bilan tadbirkorlarga yer uchastkalari va ishlab chiqarish binolari uzoq muddatli ijaraga yoki xususiy mulk sifatida berilishi ularning huquqiy maqomini mustahkamladi.

Iqtisodchi olim Q.X. Abduraxmonov aytganidek: “Investitsiyaviy faollik nafaqat soliq imtiyozlari, balki mulk huquqining daxlsizligi bilan o'lchanadi. Tadbirkor o'z aktivlari ma'muriy o'zgarishlardan qat'i nazar himoyalanganini bilishi shart”.

Amaliyotda bu tamoyil quyidagilarni anglatadi: Jihozlar himoyasi: millionlab dollarlik to'qimachilik liniyarini asossiz xatlovga olish yoki foydalanishni cheklash taqiqlanadi.

Yerga bo'lgan huquq: Klasterlar uchun yer – asosiy ishlab chiqarish vositasi. Hokimliklar tomonidan yerning asossiz olib qo'yilishi cheklangan va zarar bozor qiymatida qoplanishi shart.

Intellektual mulk: Dizayn va brend logotiplari tadbirkorning nomoddiy aktividir. Ularning himoyalanganligi raqobatbardoshlikni yo'qqa chiqaradi.

Ma'muriy bosimni kamaytirish va davlat aralashuvini cheklash. So'nggi yillarda to'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi tadbirkorlarni tekshirish tartibi tubdan isloh qilindi. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonunga asosan, davlat organlari tadbirkorning ichki xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas. “Davlat organlari, boshqa organlar va ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikka muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas” [2]. To'qimachilik va yengil sanoatda bu tamoyil ayniqsa maxsulotni standartlashtirish va sertifikatlash jarayonlarida muhimdir. Ortiqcha rasmiyatchiliklarning qisqartirilishi mahsulot tannaxshining pasayishiga va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikning oshishiga olib keladi.

To'qimachilik va yengil sanoatda ko'plab texnik reglamentlar masalan, TR TS 017/2011 mavjud. Tadbirkorlik erkinligi ushbu jarayonda davlat organlarining asossiz aralashuvini cheklashni talab qiladi.

Huquqshunos olim S.S. Gulyamov “Konstitutsiyaviy kafolatlar tadbirkorni davlat organi bilan munosabatlarda “Kuchsiz taraf” dan “teng huquqli hamkor” darajasiga ko'taradi”.

Hozirda tekshirishlar “xavfni tahlil qilish” tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Bu to'qimachilik va yengil sanoat sohasi subyektlariga ortiqcha rasmiyatchilikdan xoli bo'lib, e'tiborni mahsulot sifati va eksportiga qaratish imkonini beradi.

Klaster tizimi va shartnomaviy munosabatlar erkinligi. O'zbekiston to'qimachilik va yengil sanoatning o'ziga xos xususiyati – bu paxta-to'qimachilik klasterlarining mavjudligidir. Klaster va fermer o'rtasidagi munosabatlar buyruqbozlikka emas, balki o'zaro manfaatli shartnomaga asoslanishi shart. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida “Biz tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi barcha g'ov va to'siqlarni olib tashlashimiz, tadbirkorga yo'l berishimiz kerak. Bu – davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishidir” [4].

Shartnomaviy erkinlik klasterlarga bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mahsulot turini o'zgartirish va jahon bozoridagi narxlar asosida ish yuritish imkonini beradi.

Intellektual mulk himoyasi – innovatsion sanoat poydevori. Moda va dizayn to'qimachilik va yengil sanoatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir yangi libos modeli yoki mato nusxasi intellektual mulk obyektini hisoblanadi. Tadbirkor o'z brendini ro'yxatdan o'tkazish va uni himoya qilish bo'yicha davlatdan huquqiy yordam olishi kerak. O'zbekistonning “GSP+” tizimiga a'zo bo'lishi yengil sanoat korxonalarini zimmasiga huquqlar bilan bir qatorda xalqaro standartlarga (mehnat huquqi, ekologiya) rioya qilish majburiyatini ham yuklaydi. Tadbirkorning ushbu xalqaro me'yorlarni qo'llashdagi erkinligi va davlatning ushbu jarayondagi qo'llab-quvvatlashi sohaning eksport geografiasini kengaytiradi.

**Xulosa.** To'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish uchun tadbirkor huquqlarini kafolatlash bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

Sud himoyasini kuchaytirish: Tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari o'rtasidagi nizolarda Tadbirkor aybsizligi pretsedentini kengroq qo'llash.

Raqamli himoya: Tekshirishlarni “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi orqali to'liq nazorat qilish va noqonuniy aralashuvlar uchun javobgarlikni kuchaytirish.

Eksport erkinligi: Bojxona va logistika jarayonlarida “yashil yo'lak” tizimini yanada soddalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy kafolatlar to'qimachilik va yengil sanoatning “immunitet tizimi” bo'lib, u sohani tashqi va ichki xavflardan himoya qiladi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. - 67, 68-moddalar.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” (yangi tahriri). - Toshkent: O‘RQ-328.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston 2030” strategiyasi to‘g‘risida. 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent: -“O‘zbekiston”, 2021. - 145-bet.
5. Gulyamov S.S. “Tadbirkorlik huquqi”: Darslik. - Toshkent: TDYU, 2022. - 88-bet.
6. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot”: Darslik. - Toshkent: 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 14.12.2017 yildagi PF-5285-son.
8. Sattorov A. “Yengil sanoatda klaster tizimi: iqtisodiy va huquqiy jihatlar”. - Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2023.
9. Vaypan G.V. “Prinsip proporsionalnosti v pravovom regulirovanii predprinimatelskoy deyatel’nosti”. - M.: Yustitsinform, 2020.
10. Statistika agentligi ma’lumotlari. “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati”. - Toshkent: 2024.